

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2-2025
FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.G.Sabirdinov	
O'zbek tarixiy romani: Oybek va Qodiriy	6
G.M.Oripova	
Ayol ijodkorlar she'riyatida daraxt obrazi tasviri.....	9
M.A.Jo'rayeva	
Munavvar Qori Abdurashidxonov ijodida safar janri	13
G.Muhammadjonova	
Hayot haqiqati, tarixiy haqiqat va badiiy idrok.....	17
I.A.Эшонқулов	
Тавсифи мушаххаси тазкираҳои Ҳашмати Бухорой.....	21
B.X.Murtazoyev, F.O.Hafizova	
"Bobotog"essesida peyzaj: flora tasvirida badiiylik.....	28
I.A.Эшонқулов,З.П.Аҳмедҷонова	
Ситоиши хирад ва хирадгустарӣ дар "Шоҳнома"-и Ҳаким Фирдавсӣ	34
D.T.Musayeva	
Elizabet Gaskel ijodiga nazar	39
H.H.Қаюмов	
Муаммои шинохти санъати ташхис дар поэтикаи мумтози форсу тоҷик.....	42
Sh.T.Ibragimov	
"Babur the tiger" romani o'zbekcha tarjimasida metafora ifodasi	47
J.T.Ibragimov	
"Qutadg'u bilig" istioralarining poetik o'ziga xosliklari xususida chuqur mulohaza.....	55
A.A.Akbarov	
Vatanga muhabbatning lirik ifodasi	61

TILSHUNOSLIK

Sh.M.Iskandarova	
Farg'ona davlat universiteti tilshunosligi: kecha va bugun	66
Г.М.Хошимов, М.Г.Хошимов, Н.А.Абдуллаева, Д.Ш.Назарова, Д.А.Ахмедова	
Актуальные проблемы терминологического аппарата и метаязыка исследования пословиц и поговорок.....	71
Z.V.Alimova	
Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida sifat turkumiga oid forsiy leksemalar xususida	81
A.B.Uralov	
Ayrim kengaygan shakllar taraqqiyoti hamda ularda nomutanosibliklar	86
Z.A.Davlataliyeva	
Ingliz tili darslarida talabalarining o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning mazmuni, shakli va vositalari.....	90
H.A.Абдуллаева	
Сопоставительное изучение провербем, вербализующих концептуальную оппозицию «ум/глупость» в английском и русском языках	95
H.A.Отахонова	
Проблемы общей теории и классификации лингвокультурам	100
B.B.G'aprov	
Ingliz gazeta sarlavhalarining o'ziga xos xususiyatlari hamda ularda fe'l komponentli kollokatsiyalarning qo'llanilishi.....	106
D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova	
Siddiq Mo'minning "Buyuk Temur avlodi" nomli she'rida pretsedent nom tahlili.....	112
N.Fidan	
Ellipsis in English text linguistics	115
M.O.Qulmamatova	
Ingliz va o'zbek tillaridagi "boylik/wealth va kambag'allik/poverty" konseptlarining o'xshashlik va farqli jihatlari.....	120
N.X.Boboqulova	
Ingliz va o'zbek tillarida head/bosh somatik komponentli maqollarning konseptual tahlili	124



UO'K: 81-112.4

**INGLIZ GAZETA SARLAVHALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI HAMDA ULARDA FE'L
KOMPONENTLI KOLLOKATSIYALARNING QO'LLANILISHI****ОСОБЕННОСТИ ЗАГОЛОВКОВ АНГЛИЙСКИХ ГАЗЕТ И ИСПОЛЬЗОВАНИЕ
КОЛЛОКАЦИЙ С ГЛАГОЛЬНЫМ КОМПОНЕНТОМ****FEATURES OF ENGLISH NEWSPAPER HEADLINES AND THE USE OF COLLOCATIONS
WITH A VERB COMPONENT****G'apporov Baxriddin Baxtiyor o'g'li** 

University of Business and Science katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola ingliz gazeta sarlavhalarining tuzilishi, formati hamda badiiy tili haqida batafsil ma'lumot beradi. So'ngra, sarlavhalarda fe'l komponentli leksik kollokatsiyalar hamda ularning sarlavhalarda qo'llanishiga doir tushunchalar berib o'tiladi. Mashhur ingliz gazetalaridagi turli sarlavhalar tanlab olinadi va ular funksional-semantik va stilistik tahlilga tortiladi. Olingan natijalarga asosan, maqolada qaysi turdagi fe'l komponentli kollokatsiya rasmiy gazeta matnlarida keng tarqalganligi aniqlanib, ingliz gazeta sarlavhalarining o'ziga xos belgi-xususiyatlari tadqiq etiladi.

Аннотация

Данная статья предоставляет подробную информацию о структуре, формате и художественном языке заголовков английских газет. Затем рассматриваются лексические коллокации с глагольным компонентом и их применение в заголовках. Выбираются различные заголовки из известных английских газет и подвергаются функционально-семантическому и стилистическому анализу. На основе полученных результатов в статье устанавливается, какие виды коллокаций с глагольным компонентом наиболее распространены в официальных газетных текстах, и исследуются специфические характеристики заголовков английских газет.

Abstract

This article provides detailed information on the structure, format, and literary language of English newspaper headlines. It then discusses lexical collocations with verb components and their use in headlines. Various headlines from well-known English newspapers are selected and subjected to functional-semantic and stylistic analysis. Based on the obtained results, the article identifies which types of verb component collocations are prevalent in official newspaper texts and explores the distinctive features of English newspaper headlines.

Kalit so'zlar: kollokatsiya, alliteratsiya, diskurs, neologizm, sleng, elliptik gap**Ключевые слова:** коллокация, аллитерация, дискурс, неологизм, сленг, эллиптическое предложение**Key words:** collocation, alliteration, discourse, neologism, slang, elliptical sentence.**KIRISH**

Gazeta — bosma ommaviy axborot vositalarining ajralmas qismidir. Sarlavha esa kundalik e'lon qilinadigan gazeta matnidagi xabar yoki hikoyadan yuqorida joylashgan so'zlar va iboralardan iborat leksik birlik hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi foydalanuvchilar auditoriyasining e'tiborini jalb qilishdir. Bundan tashqari, muharrirlar turli rasmlar, chizmalar yoki hikoyalardan iqtiboslar keltirish orqali o'quvchilarning gazetalarni o'qishga qiziqishini oshirishga harakat qilishadi. Gazeta sarlavhalari gazetxonlar e'tiborini tortish uchun odatda katta bosma shriftlarda beriladi. Shuningdek, maqola matnida qaysi turdagi ma'lumotlar aks ettirilayotganini qisqa fursatlarda aniqlash uchun gazeta sarlavhasi muhim rol o'ynaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Gazeta sarlavhalari nafaqat jurnalistlar, balki tilshunoslar tomonidan ham qizg'in o'rganilib kelinmoqda. Sarlavhalarini analitik jihatdan o'rganish taxminan bundan yarim asr oldin boshlangan. O'sha davrda uch mingta sarlavha tahlil qilingan hamda har bir gazetada qo'llanadigan sarlavha bir biridan sezilarli farq qilishi aniqlangan. Van Diyk Golland gazetalaridan to'rt yuzdan ortiq sarlavhalarni ajratib olib, tahlil qiladi. Natijada u sarlavhalar asosan hukumatga

TILSHUNOSLIK

doir siyosatni aks ettirganini hamda gaplar odatda aniq nisbat shaklida kelganligini alohida ta'kidlab o'tadi [1]. Sarlavhalarining lingvistik tuzilishi ham bir tildan boshqa tilga o'zgarib boradi. Mallet gazeta sarlavhalarining asosiy vazifalariga alohida ta'xtalib, ularni to'rt turga ajratgan.

- yangilik va xabarni xulosalash;
- hikoyalarning ahamiyatini baholash;
- gazeta sahifa dizaynining ko'zga tashlanib turishi;
- gazetaga ko'zi tushgan shaxsni ashaddiy gazetxonga aylantirish [2].


Shuningdek, Bell gazeta sarlavhalarini ikki turga "hikoyaning asosiy voqeasini aks ettiruvchi" va "ikkinchi darajali voqea yoki tafsilotga e'tibor qaratuvchi"larga ajratadi [3,188]. Nir esa sarlavhalarni "hikoyaning qisqacha mazmuni" hamda "hikoyani qisqacha bayon qilmasdan, uning tafsilotlaridan birini ochib beradigan" birlik sifatida ajratadi [4,23-32].

Reah gazetalar haqida batafsil ma'lumotlar beradi hamda gazeta sarlavhalarini qay tartibda yaratilishini chuqur tahlil qiladi. Bunda u ma'lumotlarni sarlavhada qanday tartibda joylashtirish, keraksiz qismlarini olib tashlash jarayoniga alohida e'tibor qaratadi. Bundan tashqari, u gazetalar hamda ularni mutolaa qiluvchi auditoriya o'rtasidagi murakkab munosabatni sinchkovlik bilan tadqiq qiladi. U lisoniy nuqtayi nazaridan, leksik tanlov, sintaksis va diskursning ma'no qurilishi va manipulyatsiyasidagi ta'sirini ahamiyati jihatidan pastdan yuqoriga qarab o'rganadi, bu jarayonda bosma matnlardan olingan tahlillarni misol tariqasida keltiradi [5,13-15].

NATIJA VA MUHOKAMA

Ingliz gazetolari odatda "broadsheet" rasmiy uslubda yozilgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy hamda tashqi siyosatga oid masalalarni yoritadigan turi sanaladi hamda uning o'lchami katta, ustunlar soni ko'p bo'ladi. Bu gazeta turi, shuningdek, "quality paper" deb ham nomlanishi mumkin. "The New York Times", "The Guardian" hamda "The Washington" singari ingliz gazetolari "broadsheet"lar sirasiga kiradi. Yana boshqa bir turi esa "tabloid" deb nomlanib, u odatda norasmiy uslubga xos bo'lib, kichik o'lchamda bo'ladi. Unda asosan shou biznes, sport, siyosat hamda turli ko'ngilochar mavzulardagi matnlar o'rin oladi. "The Daily Mail", "The Globe" va "The Daily Star" nomli gazetalar "tabloid"dir. Biz tadqiqotimizda har ikki turdagi gazeta turidan obyekt sifatida foydalanganmiz. Demak, rasmiy va norasmiy publitistik-gazeta diskursida qo'llangan leksik hamda grammatik birliklar o'rtasida sezilarli farqlar mavjud bo'ladi. Bu, ayniqsa, kollokatsiyalar tahlilida ko'zga yaqqol tashlanishi mumkin. Qaysi gazeta turi bo'lishidan qat'iy nazar, sarlavha ularning ajralmas qismi hisoblanadi.

Ingliz gazeta (broadsheet) matnining tarkibiy qismlarga bo'linishi



3-rasm

3-rasmda 1-10 gacha tartib raqamda odatiy ingliz gazeta tuzilishi izchil ketma-ketlikda berilgan.

- Gazeta nomi
- Bo'lim
- Sarlavha
- Kichik sarlavha
- Muallif
- Joyi va sanasi
- Birinchi gap yoki paragraph
- Asosiy qism
- Rasm
- Rasm tavsifi

Biz 3 (Headline) hamda 4 (Drophead) elementlarni fe'l komponentli kollokatsiyalar tahliliga asos qilib olamiz. Ingliz gazeta sarlavhalarida kam sonli maxsus so'zlar mavjud hamda ular yuqori chastotada ishlatiladi. Shuning uchun, bu guruhga mansub so'zlarga nisbatan "sarlavha jargon"i termini qo'llanadi. *Ban, bid, claim, crack, crash, cut, dash, hit, move, pact, plea, probe, quit, quiz, rap, rush, slash* kabi so'zlar shular jumlasiga kiradi. Bunday so'zlarning alohida ajratib turuvchi xususiyati shundaki, ular nafaqat ko'p ishlatiladi, balki semantik jihatdan universalidir. Bundan tashqari, gazeta sarlavhalarida jargon hamda og'zaki nutq uslubiga xos leksik birliklar ham mavjud.

I.R.Galperinning takidlashiga ko'ra, stilistik nuqtai nazaridan, ingliz gazeta sarlavhalari hissiy bo'yoqdor so'zlardan tashkil topadi. Misol tariqasida quyidagi *celebrate, thrive, embrace, inspire, flourish, plunge, shatter, transform, hit* va boshqa so'zlarni keltirish mumkin. "Druze in shock as war **hits** home" (USA Today. 2024-yil, iyul). Ko'plab stilistik vositalar ham gazeta sarlavhasini jozibadorligini oshirib, gazetxonlar diqqatini oson jalb qilishga xizmat qiladi. Alliteratsiya (Alliteration) hamda Kalambur (Pun) gazeta sarlavhasidagi ikki muhim stilistik vosita hisoblanadi. Alliteratsiya – bu biror ibora tarkibidagi ikki yoki undan ortiq so'zlarning yoxud she'r misralarining birinchi tovushi bir xil boshlanishini anglatadi va bu orqali sarlavhalarning ohangi hamda ritmi yanada yaxshilanib, gazetxon e'tiborini bevosita tortadi. "*Six silly sailors swam south*" alliteratsiyasida yaqqol ko'rinib turganidek, har bir so'z bir xil [s] tovushi bilan boshlangan. Tom ma'noda, bu hodisa tez aytishlarni yodimizga solishi tabiiy.

Ikkinchisi esa, odatda ko'chma ma'noda ishlatiladi hamda ko'pincha hazil-mutoyibaga boy bo'ladi. Kalambur atamasi ikki yoki undan ortiq so'z bir xil yoki o'xshash tovushga ega bo'lgan, biroq mazmunan farqlanuvchi so'zlarga nisbatan ishlatiladi [6,1393]. Quyidagi parchada "Beauty is truth, truth beauty" (John Keats) "beauty" hamda "truth" so'zlarining tartibini o'zgartirgan holda so'z o'yinini qo'llanmoqda. Ushbu uslub gazeta sarlavhasining ta'sirchanligini oshirishga ulkan xissa qo'shadi.

Gazeta sarlavhalarining sintaktik strukturasi o'rganish muhim bosqich sanaladi. Bunda quyidagi shakllarni ketma-ketlikda ko'rib chiqamiz [7,336].

a) **darak gap**; "English is no longer the language of Eurovision." (The Guardian. 2024-yil, may). Bu sarlavhada darak gap to'liq shaklda berilgan. Odatda sarlavhalar tugal fikrga ega gaplar bilan emas, balki so'z birikmalari va iboralar bilan ifodalanadi, biroq ba'zan sarlavha to'liq gapdan tashkil topishi ham mumkin. Bunga asosiy sabab sifatida sarlavhada uslubiy jihatdan ifodaning ravonligi hamda ta'sirchanligini oshirishni ko'rsatish mumkin.

b) **so'roq gap**; "Will Penn State sell out its CFP home game?" (The Washington Post. 2024-yil, dekabr). So'roq gaplar o'quvchilar bilan o'zaro muloqot o'rnatish, emotsional ta'sirni oshirish va qiziqishni uyg'otish maqsadida gazeta sarlavhalarida keng qo'llanadi.

c) **nominativ gap**; (harakat fe'li qatnashmagan gap); "Free For All: The Jeers of The Year" (The Washington Post. 2024-yil, dekabr). Bu gazeta matnida fe'l ishtirok etmagan, sarlavhadan uning gap tarkibida bilvosita ishtirokini taxmin qilish mumkin.

d) **ekliptik gap**;

1. **ko'makchi fe'l tushirib qoldirilishi**; "Eunuch maker **[is]** sentenced to life for 'gruesome and grisly enterprise'." (The Guardian. 2024-yil, may). Gapda **[is]** ko'makchi fe'li tushirib qolgan, chunki gap majhul nisbat shaklida berilgan. Sarlavha tarkibidagi fe'l majhul nisbat shaklida qo'llanganda, ko'makchi fe'l ya'ni "to be" odatda tushirib qoldiriladi. Bu hodisa gap mazmunini anglashga to'sqinlik qilmaydi.

2. **gap egasini tushirib qolishi**; "Told you she wouldn't eat it." (The Daily Telegraph. 2021-yil, mart). Bu sarlavhada kimdir biror kishining (ehtimol bola yoki uy hayvoni) biror narsani eyishdan bosh tortishini oldindan shunday bo'lishini taxmin qilgani tasvirlanyapti. Bunda, urg'u asosan norozilik yoki asabiy kayfiyat izohlanyapti.

3. **Ega va kesimni tushirib qoldirilishi**; "Indomitable Irish cruise to a spirited playoff win" (The Washington Post. 2024-yil, dekabr)

e) **"the/a" tushirib qoldirilgan gaplar**;

Shuni yodda tutish lozimki, deyarli har qanday ingliz gazeta sarlavhalarida artikl ko'pincha tushirib qoldiriladi, chunki sarlavha mazmuni uning tarkibidagi leksemalardan anglashiladi. "[The] World is on [the] edge of [a] climate abyss, UN says after [a] damning Guardian survey." (The

TILSHUNOSLIK

Guardian. 2024-yil, may). Bu sarlavhada to'rt o'rinda aniq va noaniq artikllar tushirib qoldirilgan, biroq bu undan anglashilgan ma'noni tushunishga xalaqit bermaydi.

f) **fe'ning shaxsi noma'lum shakllari**: a) infinitive b) gerund c) participle);

a) "A lot of sadness: Worcestershire **to honour** Baker." (The Guardian. 2024-yil, may)

b) "**Selling** Snowballs, and Other Artistic Pursuits." (The New York Times. 2023-yil, may)

c) "**Declining** Birth Rates Alarm Economists" (The New York Times. 2024-yil, iyul)

g) so'roq olmoshlari yordamida yasalgan darak gaplar. "How Jack the lad grew up to be Jack the dad" (Sun. 2024-yil, iyul). "How" so'roq olmoshi yordamida darak gap ko'rinishidagi sarlavha hosil qilingan. Aslida, bu gap quyidagicha "How **did** Jack the lad **grow** up to be Jack the dad?" ko'rinishida bo'lgan.

h) ergashgan qo'shma gaplar; "Apple keeps iPhone to the fore as results beat Wall Street forecasts" (The Times. 2023-yil, may). Bu turdagi gaplar odatda gazeta sarlavhalarida kam uchraydi, chunki sarlavha odatda qisqa, lo'nda hamda e'tiborni jalb qiladigan bo'lishi lozim.

i) ko'chirma gapli sarlavhalar: "My family name is now a vote winner, says Le Pen's sister." (The Times. 2023-yil, may). Bu misolda ko'chirma gapdan so'ng muallif gapi keladi.

"Jane Hamilton: It's time to join march of the robots" (The Times. 2024-yil, iyul). Bu sarlavhada muallif gapi ko'chirma gapdan oldin kelib, [-] ikki nuqta bilan ajratiladi. Shuningdek, muallif gapi faqat egadan tashkil topadi.

V.N.Komissarov grammatik jihatdan ingliz gazeta sarlavhalarini quyidagi tasnifini taklif qilgan [8,253].

a) sarlavhalar aksariyati oddiy hamda davomli zamon fe'llari orqali yasaladi.

"WANDisco **cuts** job after alleged fraud" (The Times. 2023-yil, may). Bunda kesim hozirgi oddiy zamon fe'li bilan ifodalanmoqda. Fe'ning oddiy zamon shakli yordamida hosil qilingan sarlavhalar boshqa grammatik konstruksiyalarga qaraganda ko'proq miqdorni tashkil etadi.

Quyidagi sarlavhada esa "Nimby Greens **are hindering** our clean future" (The Times. 2023-yil, may) hozirgi davomli zamon fe'li ishtirok etmoqda.

b) yangiliklar diskursida eng so'nggi sodir bo'lgan yoki odatiy sodir bo'ladigan voqea-hodisalarni yoritish uchun hozirgi oddiy zamon fe'li ishlatiladi. "Brain surgeons **treat** baby in womb" (The Times. 2023-yil, may). Bu sarlavhadagi "treat" hozirgi oddiy zamon fe'li o'tgan zamonda sodir bo'lgan ish-harakatni ifodalagan. "Nevroxirurglar bachadondagi chaqaloqni davolashdi" deb tarjima qilinadi. Bu holat ingliz tilida doim ham fe'ning biror zamon formasi aynan o'sha zamonda sodir bo'lgan voqea-hodisani ifodalaydi degan fikrni yo'qqa chiqaradi.

c) kelasi zamonda sodir bo'ladigan ish-harakatlar *to+infinitive* konstruksiyasi yordamida ifodalanadi. "Ferrara **to shut** Jelly Belly plant" (Chicago Tribune. 2024-yil, iyul). Bu sarlavha aslida quyidagicha "Ferrara **will shut/is going to shut** Jelly Belly plant." bo'lishi kerak edi, biroq *to+infinitive* orqali kelasi zamonni ifodalash ingliz gazeta matnlarining o'ziga xos xususiyati bo'lganligi bois, ko'pincha kelasi zamon ko'makchi fe'llaridan foydalanishga zarurat tug'ilmaydi.

d) mashhur shaxslarning taxalluslari; "**Bey's** 'Texas Hold 'Em'" (The Dallas Morning. 2024-yil, iyul). Gapdagi "Bey" mashhur amerikalik ayol qo'shiqchi Beyoncéning laqabi hisoblanadi.

e) ko'plab qisqartma so'zlar ishlatiladi; "UK Labour Party on course for landslide election win" (The Globe and Mail. 2024-yil, iyul). UK (United Kingdom) so'zini keng tarqalgan qisqartma shakli sanaladi.

f) gazeta sarlavhalarida neologizmlar, shevaga xos so'zlar hamda slenglar ham tez-tez ko'zga tashlanib turadi. Masalan, "De Zerbi grateful to 'god of football'." (The Times. 2024-yil, iyul). Ushbu sarlavhada 'god of football'- 'futbol xudosi' degan sleng qo'llanilgan. Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, ingliz gazeta sarlavhalarida ko'pincha aniqlik va lo'ndalik muhim o'rin tutishini bilib oldik. Ayniqsa, sarlavha tarkibidagi turli grammatik qurilmalar keskin o'zgarishlarga uchrashi ham aynan ingliz bosma matbuotiga xos xususiyat ekanligiga guvoh bo'lish mumkin. Sarlavha qanday qismlarni o'z ichiga olishi haqida bilimga ega bo'lish, muallif gazetxonga qanday murojaat qilayotganini qiyinchiliksiz aniqlashga imkon beradi.

Biz gazeta sarlavhalaridagi fe'l komponentli kollokatsiyalar tahlilida Benson va Ilsonlar hamda Levis taklif qilgan grammatik hamda leksik kollokatsiya formalarini tadqiqotimizga asos qilib olamiz.

Levis fe'l komponentli leksik kollokatsiyalarni quyidagi *verb+noun*, *verb+adverb*, *verb+adjective+noun* hamda *noun+verb* kombinatsiyalar orqali tasniflagan. Benson va Ilson esa ularni *verb (denoting action)+noun*, *verb (denoting cancellation, eradication or nullification) + noun*, *noun+verb*, *verb+adverb* ko'rinishida guruhlashtirishni ma'qul ko'rishgan. Yuqoridagi keltirilgan har ikki fe'l qatnashgan kollokatsiya turlarida o'xshash hamda farqli jihatlar mavjud. *noun+verb* va *verb+adverb* konstruksiyalari Levis va Benson hamda Ilson tomonidan kombinatsiya orqali ifodalangan. Biroq, Levis *verb+noun* hamda *verb+adjective+noun* konstruksiyalarni alohida-alohida turga mansubligini ajratib ko'rsatgan. Biroq, Benson va Ilsonning klassifikatsiyasida esa *verb+adjective+noun* mavjud emas, ya'ni kombinatsiya tarkibida otdan oldin sifat ishlatilmaydi. Benson va Ilson *verb+noun* shaklidagi so'z qurilmasini quyida ikki guruhga ajratgan:

- a) *verb+noun* kombinatsiyasi tarkibidagi fe'l "harakat"ni ifodalashi lozim;
- b) *verb+noun* kombinatsiyasi tarkibidagi fe'l "tugatish, bekor qilish, yo'q qilish, yo'qqa chiqarish" kabi leksik ma'nolarni ifodalashi lozim;

Shunday qilib, biz fe'l komponentli leksik kollokatsiyalar kombinatsiyalari o'rtasida farqlarga etarlicha to'xtaldik. Endi esa ingliz gazeta sarlavhalarida ularning qo'llanilishi bo'yicha tahlillarga kirishsak bo'laveradi. Dastlab, gazeta sarlavhalarida juda ko'p leksik kollokatsiyalarni ko'rib chiqsak.

"Russia launches strike on Kyiv after Putin's 'duel' threat at ear-end news conference" (The Washington Post. 2024-yil, dekabr). Ushbu sarlavhadagi *verb+noun* kombinatsiyasi orqali ifodalangan "launches strike" kollokatsiyasi odatda xarbiy operatsiyalar paytida foydalaniladi. Yuqoridagi sarlavha o'zbekchaga "Rossiya Kiyevga Putinning yil so'ngida tashkil qilingan matbuot anjumanidagi "duel" tahdididan so'ng zarba berdi/hujum uyushtirdi." tarzida tarjima qilinadi. Qizig'i shundaki, o'zbek gazeta sarlavhalarida odatda fe'l qaysi zamonda ishlatilsa, u o'sha zamonda o'z aksini topadi. Biroq, ingliz gazeta sarlavhalariga nisbatan bunday hukmga kelish noto'g'ri, chunki Present Indefinite (Hozirgi oddiy zamon) fe'li nafaqat yaqinda sodir bo'lgan voqea-hodisalarni, balki kelasi zamonda sodir bo'lishi kutilayotgan ish-harakatlarga nisbatan ham ishlatiladi. Shuning uchun ham, "launches strike" so'z birikmasi hozirgi zamon fe'li yordamida yasalgan hamda u o'zbekchaga "zarba berdi/hujum uyushtirdi" shaklida o'tgan zamon fe'li orqali tarjima qilinadi. Bundan tashqari, "launch" fe'li harakatni ifodalagani tufayli Benson va Ilsonning a) *verb (denoting action) + noun* tasnifiga mos keladi. b) *verb (denoting cancellation, eradication or nullification) + noun* kombinatsiyasi esa quyidagi sarlavhaga mos "Northern Virginia high school bans mobile phones" (The Washington Post. 2024-yil, dekabr) keladi, chunki gap tarkibidagi "ban" fe'li ta'qiqni ifodalab kelmoqda.

Levis taklif qilgan *verb+adjective+noun* kombinatsiyasi quyidagi sarlavhada "Hamilton **ends long wait** with record 9th British GP win" (USA Today. 2024-yil, iyul) o'z aksini topib, "ends long wait" kollokatsiyasida sifat otni aniqlab kelmoqda.

verb+adverb kombinatsiyali leksik kollokatsiya ham gazeta sarlavhalarida juda ko'p uchraydi. E'tiborli jihati shundaki, sarlavhalarda ravish ko'pincha fe'ldan oldin keladi *adverb+verb*. Ravish qaysi tartibda kelishidan qat'iy nazar, fe'ldan anglashilgan ma'noni aniqligi hamda tushunarli bo'lishiga xizmat qiladi.

"Denouncer of Sir Softie sits awkwardly with colleagues" (The Times. 2024-yil, may). Bu sarlavhada ravish fe'ldan so'ng qo'llanilib, ish-harakatning qay holda bajarilganligini ifodalab kelmoqda. "Senate **Strongly Opposes** New Tax Bill" (The Washington Post. 2023-yil, mart). Sarlavhadagi "Strongly Opposes" kollokatsiyasi "Senat yangi soliq qonunchiligiga **keskin qarshi chiqqanligi**"ni ifodalamoqda. "Strongly" ravishi "oppose" fe'ldan anglashilgan ma'noni kuchaytirib, vaziyat jiddiy tus olganligiga ishora qilmoqda. *Noun+verb* leksik kollokatsiyasi yordamida yasalgan gazeta sarlavhalari son jihatdan yuqori o'rinlarda turadi. Bu kombinatsiyaning o'ziga xosligi shundaki, ot fe'l bilan o'zaro semantik jihatdan uyg'unlik hosil qiladi hamda odatda bunday kollokatsiyalarda mazmun deyarli tugal bo'ladi. Masalan, quyidagi "Gas Prices Surge as Supply Drops" (The New York Times. 2023-yil, sentabr) qo'shma gap tarkibidagi bosh gapning "Gas Prices Surge" (Gaz narxlari ko'tarildi) yakka o'zi orqali sarlavha mazmuni to'liq anglashilmoqda.

XULOSA

Gazeta sarlavhalarining ta'sirchanligini oshirish maqsadida sarlavhalarda kollokatsiyalarning samarali ishlatilishini chuqurroq tahlil qildik. Gazetxonalar auditoriyasining

TILSHUNOSLIK

e'tiborini jalb qilish uchun jozibador va qisqa sarlavhalar yaratishga e'tibor qaratish zarurligini aniqladik. Bundan tashqari, kollokatsiyalarning grammatik shakllari hamda vazifalarini tahlil qilishda ekliptik gaplar, fe'l zamonlari va boshqa grammatik o'zgarishlar o'ziga xos uslubiy vosita sifatida qo'llanayotganiga guvoh bo'ldik. Bu, ayniqsa, tarjima jarayonida aniqlik va lo'ndalikni ta'minlash uchun zarur.

Alliteratsiya, kalambur kabi stilistik vositalarni yanada kengroq o'rganish va qo'llash orqali gazeta sarlavhalarining badiiy jozibadorligini oshirish mumkin degan xulosaga keldik. Chet el gazetalari sarlavhalarida qo'llanilgan innovatsion yondashuvlarni tahlil qilib, milliy matbuotga kerakli jihatlarini tatbiq qilish zarur degan fikrga keldik. Bu orqali bosma va onlayn matbuotning jamiyat ijtimoiy hayotidagi o'rnini mustahkamlash mumkin. Biz kelajakdagi ilmiy tadqiqotlarda ingliz gazeta sarlavhalaridagi fe'l komponentli kollokatsiyalarni boshqa tillardagi gazeta sarlavhalari bilan taqqoslash, tarjima masalalarini o'rganish va lingvistik jihatdan chuqurroq tahlillar olib borishni tavsiya etamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Van Dijk, T. A. (1988). *News as Discourse*. Lawrence Erlbaum.
2. Mallette, M. F. (Ed.). (1990). *Handbook for Journalists of Central and Eastern Europe*. World Press Freedom Committee.
3. Bell, A. (1991). *The Language of News Media*. Blackwell. p. 188.
4. Nir, R. (1993). A discourse analysis of news headlines. *Hebrew Linguistics*, 37, pp. 23–31.
5. Reah, D. (2002). *The Language of Newspapers* (2nd ed.). Routledge. pp. 13–15 (126 pages).
6. Simpson, J. A., & Weiner, E. S. C. (1989). *The Oxford English Dictionary*. Oxford University Press. p. 1393.
7. Гальперин, И. Р. (2010). *Стилистика английского языка*. Либроком. 336 с.
8. Комиссаров, В. Н. (1990). *Теория перевода (лингвистические аспекты): учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. Высш. шк.* 253 с.